



SON SO'Z TURKUMINI O'QITISHGA DOIR
METODIK TAVSIYALAR

Sevinch Abduxamidova

*ToshDO 'TAU ona tili va adabiyoti ta'limi yo 'nalishi
3-bosqich talabasi*

abduxamidovasevinch@gmail.com / 941464304

Annotatsiya : Ushbu maqolada son so'z turkumining ta'lim jarayonidagi o'rni, uni o'quvchilarga samarali va tushunarli tarzda o'rgatish bo'yicha metodik tavsiyalar yoritilgan. An'anaviy va interfaol metodlar, jumladan, yangi taklif etilgan "Jonlangan sonlar" interaktiv yondashuvi orqali sonlarning grammatik va semantik xususiyatlari oson o'zlashtirilishi ta'kidlangan. Metodik tavsiyalar asosida dars jarayonida o'quvchining tahliliy fikrashi, ijodi yondashuvi va faol ishtiroki kuchaytirilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Son so'z turkumi, metodik tavsiya, interfaol metod, ta'lim texnologiyasi, grammatik tahlil, jonlashtirish metodi, til o'rgatish.

Abstract: This article presents methodological recommendations for effectively teaching numeral parts of speech in the educational process. It explores both traditional and interactive methods, including the newly proposed "Animated Numbers" technique, which helps students grasp the grammatical and semantic features of numerals more easily. These strategies aim to enhance students' analytical thinking, creativity, and active participation during lessons.

Keywords: numerals, teaching methodology, interactive method, educational technology, grammar instruction, personification, language teaching.

Аннотация: В статье представлены методические рекомендации по эффективному обучению числительным как частям речи в учебном процессе. Рассматриваются как традиционные, так и интерактивные методы, включая новый подход «Ожившие числа», способствующий лучшему усвоению грамматических и семантических особенностей числительных. Предлагаемые



методы направлены на развитие аналитического мышления, творческого подхода и активного участия учащихся на уроках.

Ключевые слова: числительные, методические рекомендации, интерактивный метод, образовательные технологии, грамматический анализ, персонаификация, обучение языку.

O‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlari orasida sonlar muhim o‘rin tutadi. Ular predmetlarning miqdorini, tartibini bildiradi va gapda asosan aniqlovchi yoki to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi. Son so‘z turkumining grammatik xususiyatlarini, turlari va ularning qo‘llanishini o‘rganish, maktab o‘quvchilari til madaniyatini shakllantirishda, matematik fikrlashni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu boisdan, sonlarni o‘rgatishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish zarur.

Son so‘z turkumining nazariy asoslarini o‘rgatish. Sonlar haqida dastlabki tushunchani shakllantirish uchun quyidagilar e’tiborga olinadi:

- I. Sonlarning ta’rifi: Son – predmetlarning miqdori, tartibi, ulushini bildiruvchi mustaqil so‘z turkumi.
- II. Sonlarning turlari:
 - a) Miqdor sonlar: sanoq sonlar, dona sonlar, chama sonlar, jamlovchi sonlar, taqsim sonlar, kasr sonlar.
 - b) Tartib sonlar.

Bu tushunchalarni ta’lim jarayonida vizual materiallar, misollar, jadval va diagrammalar orqali tushuntirish tavsiya etiladi.

Darsda foydalilaniladigan metod va usullar. Sonlarni o‘qitishda quyidagi interfaol metod va usullar samaradorlikni oshiradi:

- a) Kuzatish va taqqoslash usuli. O‘quvchilarga ikki yoki undan ortiq son turlarini solishtirish topshiriqlari beriladi.
- b) Amaliy mashqlar metodi. Sonlar ishtiroy etgan gaplarni to‘g‘ri tuzish. Sonlarni aniqlab, ularni turlariga ajratish mashqlari.



d) Loyihaviy metod. O‘quvchilar “Hafta davomida nimalarni necha marta bajarding?” mavzusida bir-birlariga hisobot topshirishadi. Bu orqali sonlarning nutqdagi amaliy vazifasi mustahkamlanadi.

“Jonlangan Sonlar” metodi. Yangi interaktiv yondashuv – sonlarni personajlashtirish asosida o‘rgatish.

Bu metod konstruktivizm (bilimni o‘quvchining shaxsiy tajribasi orqali shakllantirish) va dramatik o‘yin texnologiyalariga asoslanadi. Unda sonlar real hayotdagi jonli personajlarga aylantiriladi, ya’ni sonlarning har biri o‘z xarakteri, vazifasi, hatto “tili” bilan jonlantiriladi. Bu orqali sonlar mavzusi o‘quvchi xotirasiga hissiy, tasviriylari va nutqiy darajada kuchliroq singadi.

Metod g‘oyasi: Sonlar – bu tirik personajlar, ularning o‘z rollari va vazifalari bor. Har bir son turi (miqdor, tartib, jamlovchi va h.k.) sahna yoki ssenariy asosida jonlanadi.

1. Tayyorgarlik bosqichi. O‘qituvchi har bir son turiga oid maxsus "xarakter" kartalarini tayyorlaydi:

Masalan, miqdor son (Besh): “Men Beshman. Mening vazifam – nechta narsa borligini aytish.”

Tartib son (Uchinchi): “Men – Uchinchi. Men kim qachon kelishini ko‘rsataman.”

Jamlovchi son (Ikkov): “Men – Ikkovman. Men ikki kishini bitta guruuhga jamlayman.”

Taxminiy son (Yuzga yaqin): “Men – Yuzga yaqinman. Men aniq emasman, faqat taxmin qilaman.”

2. Dramatizatsiya. O‘quvchilar kichik guruahlarga bo‘linadi. Har bir guruh bir turdagisi son rolini o‘ynaydi. Ular berilgan matn asosida yoki o‘qituvchining savollariga o‘z rollari orqali javob berishadi.

Masalan, o‘qituvchi: “Agar bir sinfda necha kishi borligini ko‘rsatish kerak bo‘lsa, kim gapiradi?”

“Besh” chiqadi: “Bu mening vazifam! Beshta o‘quvchi bor!”



3. "Sonlar sarguzashti" mini-sahna. O‘quvchilar o‘zlari sonlar haqida kichik sahna yozadi: biron bir muammo (masalan, bayramga nechta odam keladi, ularni qanday navbat bilan kirgizamiz) va har xil sonlar o‘z vazifasi bilan muammoni hal qiladi.

Bu jarayonda o‘quvchi sonlarning leksik ma’nosini, grammatik funksiyasini, turlarini hamda gapdagi o‘rmini chuqurroq anglaydi.

Ushbu metodning ustunliklari:

| Ustunliklar | Tavsifi |
|-------------------------------------|---|
| Kreativlik | Sonlar haqida kutilmagan yondashuv orqali qiziqish ortadi |
| Xotirada uzoq vaqt saqlanadi | Personajlashtirish orqali o‘quvchi sonlarni tasavvurida jonlantiradi |
| Faollik oshadi | Har bir o‘quvchi o‘z rolini ijro etadi, bu esa darsda faol ishtirokni ta’minlaydi |
| Ko‘p jihatli o‘rganish | Leksik, grammatik, nutqiy va tafakkuriy jihatlar birgalikda rivojlanadi |

“Jonlangan Sonlar” metodi son so‘z turkumini mavhum tushunchadan konkret, qiziqarli va tushunarli bilimga aylantiradi. Bu metodni ayniqsa 5–6-sinf o‘quvchilari bilan ishlashda samarali qo‘llash mumkin.

Son so‘z turkumini o‘qitish faqat grammatik bilimlar bilan chegaralanmaydi, balki o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, aniqlik, tartib, vaqt ni idrok qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham xizmat qiladi. Yangi pedagogik texnologiyalar, integratsiyalashgan yondashuvlar va interfaol metodlar darslarning samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi esa o‘quvchilar tilida sonlarning tabiiy va to‘g‘ri qo‘llanishiga erishish uchun yaratuvchan yondashishi lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tal'at G'afforova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – 160 b.
2. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abduzalova Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent – 2009.
3. Ro‘ziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. – Toshkent 2013.
4. Rafiyev A. , G’ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , “Sharq”, 2013.